



## Relations involving precious stones and precious metals as objects of civil law regulation

Adolat SETTIEVA<sup>1</sup>

Tashkent State University of Law

### ARTICLE INFO

**Article history:**

Received December 2024  
Received in revised form  
15 December 2024  
Accepted 20 January 2025  
Available online  
15 February 2025

**Keywords:**

precious stones,  
precious metals,  
civil law relations,  
transactions,  
purchase and sale,  
pledge,  
lease,  
storage contracts,  
licensing,  
authenticity control,  
international standards,  
electronic monitoring,  
electronic registry,  
etc.

### ABSTRACT

This article discusses the civil law regulation of relations concerning precious stones and precious metals in circulation, highlighting the importance and relevance of this field. It addresses the conclusion, amendment, and termination of contracts related to these types of objects as a form of civil law agreement, as well as the creation of electronic databases about them.

Furthermore, the article explores issues of creating opportunities for entities involved in this sector to utilize certain benefits and preferences established by law. As a result of the research conducted within the framework of this topic, scientific and theoretical proposals for further improvement of the industry are presented.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-pp470-473>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog'liq munosabatlar – fuqarolik huquqiy tartibga solish obykti sifatida

**Kalit so'zlar:**

qimmatbaho toshlar,  
qimmatbaho metallar,  
fuqarolik-huquqiy  
munosabatlar,  
bitimlar,  
oldi-sotdi,  
garov,

### ANNOTATSIYA

Maqolada qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar muomalasi jarayonida mazkur turdagi obyektlar bilan bog'liq munosabatlarni fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi, ushbu sohaning ahamiyati va dolzarbligi, bu turdagi obyektlarga oid shartnomalarning fuqarolik huquqiy shartnomalar turi sifatida tuzish, o'zgartirish, bekor qilish hamda ular haqida elektron ma'lumotlar bazalarini yaratish haqida so'z boradi.

<sup>1</sup> Tashkent State University of Law. E-mail: [adolatsettiyeva@gmail.com](mailto:adolatsettiyeva@gmail.com)

ijara,  
saqlash shartnomalari,  
litsenziyalash,  
asillik nazorati,  
xalqaro standartlar,  
elektron monitoring,  
elektron reyestr.

Shuningdek, soha faoliyatida ishtirok etayotgan subyektlarga qonunchilikda belgilangan ayrim imtiyoz va preferensiyalardan foydalanishga imkoniyat yaratish masalalari haqida ham to'xtalib o'tiladi. Mavzu doirasida olib borilgan tadqiqot natijasida kelgusida sohani takomillashtirish yuzasidan ilmiy-nazariy takliflar berib o'tilgan.

## **Отношения, связанные с драгоценными камнями и драгоценными металлами – как объект гражданско-правового регулирования**

### **АННОТАЦИЯ**

#### **Ключевые слова:**

драгоценные камни,  
драгоценные металлы,  
гражданско-правовые  
отношения,  
сделки,  
купля-продажа,  
залог,  
аренда,  
договоры хранения,  
лицензирование,  
пробирный контроль,  
международные  
стандарты,  
электронный мониторинг,  
электронный реестр.

В статье рассматривается гражданско-правовое регулирование отношений, связанных с драгоценными камнями и драгоценными металлами в процессе их обращения, значение и актуальность данной сферы, а также вопросы заключения, изменения и расторжения договоров, связанных с данными видами объектов, как вида гражданско-правовых договоров, и создания электронных баз данных о них.

Кроме того, обсуждаются вопросы предоставления субъектам, участвующим в данной сфере, возможности пользоваться установленными законодательством льготами и преференциями. В результате проведенного исследования были сформулированы научно-теоретические предложения по дальнейшему совершенствованию отрасли.

Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog'liq munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tartibga solish, bugungi kundagi eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan soha-yo'nalishlardan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki ijtimoiy munosabatlar murakkablashib borgani sayin, ularni tartibga solib turuvchi normativ-huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyatiga nisbatan qo'yilgan talablar ham ortib, murakkablashib boradi.

Mazkur sohaga oid ushbu toifadagi munosabatlar respublikamizda maxsus qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi, jumladan O'zbekiston Respublikasining "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida"gi Qonuni asosiy huquqiy manba hisoblanadi.

Qimmatbaho metallar va toshlar bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarning asosiy subyektlari davlat, ya'ni maxsus vakolatli organlar, litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar, qonun doirasida belgilangan tartibda faoliyat yurituvchi jismoniy shaxslardan iborat. Bu munosabatlar doirasida turli xil bitimlar, jumladan oldi-sotdi, garov, ijara va saqlash shartnomalari tuzilishi mumkin, biroq ularning barchasi maxsus ruxsatnomalar asosida amalga oshiriladi.

Bunda davlat nazorati tizimi litsenziyalash, asillik nazorati, eksport-import operatsiyalarini nazorat qilish va maxsus hisobga olish kabi mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Litsenziyalash orqali davlat ushbu sohadagi faoliyatni nazorat qiladi, tartibga soladi. Asillik nazorati zargarlik buyumlarining sifatini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Eksport-import operatsiyalari maxsus talablar asosida amalga oshiriladi va qat'iy nazorat ostida bo'ladi.

Shu bilan birga, huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari qimmatbaho metallar va toshlarning davlat zaxirasini shakllantirish, ularni qazib olish, qayta ishlash va muomalaga chiqarish tartibini belgilash, zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va sotish qoidalarini o'rnatish hamda asillik belgilarini qo'llash tartibini o'z ichiga oladi. Bu jarayonlarning har biri aniq belgilangan qoidalar va talablar asosida amalga oshiriladi.

Shunga ko'ra, qimmatbaho metallar va toshlar bilan bog'liq munosbatlarni huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyatlari haqida quyidagilarni keltirish mumkin.

Davlat zaxirasini shakllantirish va saqlash jarayoni qat'iy belgilangan tartib asosida amalga oshiriladi. Davlat zaxirasi strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Zaxirani shakllantirish davlat byudjeti mablag'lari hisobidan, shuningdek qazib olingan qimmatbaho metallar va toshlarni davlat tomonidan sotib olish orqali amalga oshiriladi. Zaxira maxsus xavfsizlik choralari ko'rilgan omborlarda saqlanadi va doimiy monitoring ostida bo'ladi.

Bundan tashqari, qazib olish, qayta ishlash va muomalaga chiqarish jarayoni bir necha bosqichlardan iborat. Qazib olish uchun maxsus litsenziya talab qilinadi va bu jarayon geologiya xizmati nazorati ostida olib boriladi. Qazib olingan xom ashyo maxsus laboratoriyalarda tekshiruvdan o'tkaziladi va sertifikatlashtiriladi. Qayta ishlash korxonalari zamonaviy texnologiyalar va xavfsizlik standartlariga javob berishi kerak. Muomalaga chiqarish jarayoni ham qat'iy nazorat ostida bo'lib, har bir partiya uchun alohida hujjatlar rasmiylashtiladi.

Zargarlik buyumlarini ishlab chiqarish va sotish qoidalari milliy va xalqaro standartlarga asoslanadi. Ishlab chiqarish korxonalari maxsus litsenziyaga ega bo'lishi, sifat nazorati tizimini joriy etishi va malakali mutaxassislarini jalb qilishi talab etiladi. Sotish jarayoni ham qat'iy tartibga solingan bo'lib, har bir buyum uchun zaruriy hujjatlar, jumladan sifat sertifikati va kafolat taloni berilishi shart. Chakana va ulgurji savdo qoidalari alohida belgilangan bo'lib, narx shakllanishi ham nazorat qilinadi.

Asillik belgilarini qo'llash tartibi zargarlik buyumlarining haqiqiylikni tasdiqlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. Asillik belgisi buyumning qimmatbaho metallar tarkibini ko'rsatadi va davlat tomonidan belgilangan standartlarga muvofiqligini tasdiqlaydi. Har bir probir belgisi noyob bo'lib, maxsus raqamga ega. Soxta probir belgilarini aniqlash va ularga qarshi kurashish bo'yicha maxsus choralar ko'riladi.

Bu jarayonlarning har biri maxsus vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinadi. Nazorat jarayonida zamonaviy texnologiyalar, jumladan elektron monitoring tizimlari va maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalaniladi. Qonun buzilishi holatlari aniqlanganda tegishli javobgarlik choralari qo'llaniladi.

Sohada xalqaro hamkorlik ham muhim rol o'ynaydi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik, sertifikatlashtirish tizimlarining o'zaro tan olinishi va tajriba almashish kabi masalalar doimiy e'tibor markazida bo'ladi. Bu esa mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Eng e'tiborli tomoni, zamonaviy sharoitda raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, elektron hujjat aylanishi tizimining rivojlantirilishi va nazorat jarayonlarining avtomatlashtirilishi soha rivojiga muhim hissa qo'shmoqda. Bu o'z navbatida jarayonlarning shaffofligini oshirish va samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fuqarolik-huquqiy javobgarlik masalalari alohida ahamiyatga ega bo'lib, litsenziyasiz faoliyat yuritish, sifat talablarini buzish, hisobot va hujjatlashtirish tartibini buzish hamda noqonuniy operatsiyalar uchun javobgarlik choralari belgilangan. Bu choralarga ma'muriy va jinoiy javobgarlik ham kirishi mumkin.

Bunda xalqaro huquqiy jihatlar ham muhim rol o'ynaydi. Xalqaro savdo qoidalari, xalqaro standartlar va bojxona nazorati tartibi bu sohaning global miqyosdagi tartibga solinishini ta'minlaydi. Zamonaviy tendensiyalar elektron savdo platformalarining rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi va xalqaro standartlarga moslashuvni o'z ichiga oladi.

Huquqiy himoya mexanizmlari iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish, sug'urta mexanizmlari va nizolarni hal qilish tartibini o'z ichiga oladi. Bu mexanizmlar orqali bozor ishtirokchilarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilinadi.

Soha rivojlanishida yangi texnologiyalar va innovatsion yechimlarning joriy etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron hisobga olish tizimlari, raqamli sertifikatlashtirish va zamonaviy asillik belgilari kabi yangiliklar sohaning samaradorligini oshirish va xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qimmatbaho metallar va toshlar bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarni tartibga solishda davlat manfaatlarini bilan tadbirkorlik subyektlari manfaatlarini muvozanatlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu muvozanat orqali sohaning barqaror rivojlanishi va xalqaro standartlarga muvofiq faoliyat yuritishi ta'minlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, respublikamizda sohaning barqaror rivojlanishi, qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog'liq munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solish jarayonini sifat va samaradorlik jihatdan yangi bosqichga olib chiqish maqsadida quyidagilar taklif etiladi.

Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar sohasida faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari huquqlarini yanda ishonchli himoya qilish maqsadida qonunchilikda ularga nisbatan belgilangan mavjud ma'muriy va boshqa shakldagi javobgarlik masalalarni yengillashtirish.

Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar sohasida qonunchilik talablariga asosan faoliyat olib borayotgan, ko'plab aholi qatlamlarini ish bilan band qilgan tadbirkorlar yoki litsenziya asosida faoliyat yuritayotgan shaxslarga mavjud soliq to'lovlarini yengillashtirish, ularga nisbatan imtiyoz va preferensiyalar berish.

Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar sohasida amalga oshirilayotgan faoliyat, xususan, subyektlar faoliyati nazorati jarayonida zamonaviy texnologiyalar, jumladan elektron monitoring tizimlari va maxsus dasturiy ta'minotlardan foydalanish zarur. Bunda taraflar tomonidan tuzilgan shartnomalar elektron reestrini shakllantirish yuritish.

Xulosa qilib aytganda, qimmatbaho toshlar va metallar bilan bog'liq munosabatlarning fuqarolik-huquqiy tartibga solinishi murakkab va ko'p qirrali tizimni tashkil etadi. Bu tizim davlat nazorati, huquqiy tartibga solish mexanizmlari, xalqaro standartlar va zamonaviy tendensiyalarni o'z ichiga olgan holdagina samarali faoliyat yuritishi ta'minlanadi.